

Echki va uning bolalari

(Jonkuyar ustozlar va ularning sho'x o'quvchilari haqida)

1 Oktabr- Ustoz va murabbiylar kuniga bag'ishlanadi.

Umarova Feruza

AFIDUMaktabi o'qituvchisi

-Boshlaymiz bu bayramni ,

Bir ajoyib ertakdan...

Bir bor ekan ,bir yo'q ekan,

Qadim-qadim zamonda,

Uzoq-uzoq tomonda,

Yasharkan bir o'rmonda,

Qorong'u zimistonda

Bir ahmoq Ona Echki.

- Voy, nega ahmoq?.

“ Nega ahmoq?” deysizmi,

Chunki qiyin zamonda

Iqtisodiy tomondan

Qanday qilib boqsin u

Abadiy och bollarin

Shumtaka echkilarin?

Ertalabdan kechgacha

Faqat g'alva, to'polon

Bir- biri bilan urishgan,

Bir-birlarin quvishgan.

Kirmas ekan so'ziga.

Oh! Bechora Ona Echki!

Uning yetti bolasi

To'ymas ekan nech qorni

Topganini yeyarkan

Kunduziyu kechasi.

-Voy dod!-debdi u Echki,

To'yasanlami o'zi,

Qachongacha bo'laman

“Moshinani mokisi”?

To'yib ketib oxiri

Yo'lga chiqibdi Echki.
-Eshitinglar bollarim,
Yettita echkilarim.
Man bozorga ketyapman
O't-o'langa,non ,bug'doyga
Ochmanglar hech eshikni
Kelib qolsa Bo'rivoy!
-Ochamiz, ochamiz
Baribir ochamiz!...
-Eh, qani endi kelsaydi,
Bitta ,bitta yesaydi
Burdalab go'shtlaringni
Bir gramm qoldirmasaydi!...
Va nihoyat kelibdi
Eshik qoqib bo'rivoy.
-Ochinglar echkilarim
Bu- men, Ona Echktivoy.
Echkilar ham jon-jon deb
Eshikni ochishibdi.
Hayron hatto Bo'rivoy,
Hayratdan lol qolibdi.
Vajohat bilan echkilar
Unga yopirildilar
Yettitaga bo'lishib
Pishirmay ham yutdilar!
-Voy-bu,buncha qo'rqinchli,
dahshatlidur bu ertak
Oxiri nima bilan
Tugabdi bu xom cho'pchak?
-Ey, oxirin qoyaver,
Bo'lmagan bu-haqiqat
Hatto echkilarning ham
Onasi o'z bolasin
Tashlarmidi bo'riga,
Yem qilib, bu-bekor gap!
Lekin, aslida o'zi
Echkilar emas , bo'ri
Yeb qo'ygandi ularni
Bo'ri emas echkilar

Yem bo'lgandi bo'riga.
Oh bechora Echktivoy
Yig'ladi,qildi dod-voy
Yetib keldi ovchilar
Qutqarildi echkilar.
-Voy, Xudoga shukur!
Bor ekanku haqiqat!
-Eh, bilasanmi do'stim,
Men o'xshatdim o'zimizni
Echki bolalariga.
Biz shumtaka bo'lsak ham,
To'polonchi bo'lsak ham,
Bo'riga yem bo'lsak ham,
Qutqarlar bizlarni
Ona kabi ustozlar.
Cho'qqilarga olib chiqib
Faqat aziz ustozlar,
Ona kabi ustozlar.
Ertalabdan kechgacha
Bilimlarini berar,
Mehrlarini berar,
Doimo tarbiyalar
Ona kabi ustozlar.
Ustozlarim , ustozlar
Siz sog' bo'ling ustozlar
Mehribonim Ustozlar!
Sizga ta'zim, sizga ta'zim,
Jonajonim ustozlar!